



2020- yilning yanvar-noyabr oylari uchun Buxoro viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Buxoro viloyatida jami **4 801,0** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **104,9 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2 729** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **267** taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **103,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **62,1 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **120,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,5 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **126,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **29,4 %**) o'sishidir.




Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	2019- yil 1- dekabr holatida	2020- yil 1- dekabr holatida	
Buxoro viloyati	2 462	2 729	110,8
Buxoro sh.	830	900	108,4
Kogon sh.	100	116	116,0
<i>tumanlar:</i>			
Olot	56	69	123,2
Buxoro	196	224	114,3
Vobkent	106	118	111,3
G'ijduvon	175	198	113,1
Kogon	118	134	113,6
Qorako'l	83	96	115,7
Qorovulbozor	40	43	107,5
Peshku	125	149	119,2

Romitan	211	219	103,8
Jondor	203	222	109,4
Shofirkon	219	241	110,0


**Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Buxoro sh. (33,0 %), Shofirkon (8,8 %) va Buxoro (8,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **853,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **153,6 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **5,7 %** punktga ko'payib, **17,8 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **81,5 %** i yoki 2019- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **113,2 %**), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **56,7 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,5 m.**), va Kogon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,9 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,4 m.**) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,3 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,1 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **102,8 %** ni tashkil etgan holda **2 654,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **26,9 %** ni tashkil etdi yoki **1 292,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **89,9 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **220,5** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 580,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,6 %** va **95,4 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





2020- yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Buxoro viloyati	4 801,0	220,5	4,6	4 580,5	95,4
Buxoro sh.	1 102,0	81,2	7,4	1 020,8	92,6
Kogon sh.	329,6	16,8	5,1	312,8	94,9
<i>tumanlar:</i>					
Olot	325,0	13,9	4,3	311,1	95,7
Buxoro	438,2	6,6	1,5	431,6	98,5
Vobkent	120,5	4,2	3,5	116,3	96,5
G'ijduvon	418,2	12,5	3,0	405,7	97,0
Kogon	364,2	7,2	2,0	357	98,0
Qorako'l	255,9	35,3	13,8	220,6	86,2
Qorovulbozor	298,9	7,8	2,6	291,1	97,4
Peshku	241,7	6,8	2,8	234,9	97,2
Romitan	339,8	5,2	1,5	334,6	98,5
Jondor	318,8	15,6	4,9	303,2	95,1
Shofirkon	248,2	7,4	3,0	240,8	97,0

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2020- yil yanvar-noyabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **54,2 %** i yoki **2 602,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

54,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **397,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **15,2 %** ni tashkil etdi

15,2 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 105,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **42,5 %** ni tashkil etdi.

42,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 099,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **42,3 %** ni tashkil etdi.

42,3 %




**2020- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Buxoro viloyati	4 801,0	104,9	2 602,3
Buxoro sh.	1 102,0	100,2	654,7
Kogon sh.	329,6	116,2	204,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	325,0	103,1	152,4
Buxoro	438,2	113,7	191,9
Vobkent	120,5	100,2	73,1
G'ijduvon	418,2	100,4	264,3
Kogon	364,2	107,8	215,2
Qorako'l	255,9	104,6	114,5
Qorovulbozor	298,9	108,9	83,8
Peshku	241,7	105,5	142,1
Romitan	339,8	100,2	236,8
Jondor	318,8	107,4	139,6
Shofirkon	248,2	106,2	129,6

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **7,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,6 %** ga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,5 %** punktga ko'payib, **50,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,1 %** punktga kamayib, **42,4 %** ni tashkil etdi.

ulushi, % da




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **25,7 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2,0 %** punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **74,3 %** (**2,0 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.

ulushi, % da

Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar




2019- yil yanvar-noyabr 2020- yil yanvar-noyabr



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **10,6 %** punktga ko'paydi va **48,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **51,3 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **10,6 %** punktga kamaydi.

ulushi, % da





2020- yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari


mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	4 801,0	3 050,5	932,0	818,5
Buxoro sh.	1 102,0	695,3	244,4	162,3
Kogon sh.	329,6	137,4	110,1	82,1
<i>tumanlar</i>				
Olot	325,0	236,8	17,4	70,8
Buxoro	438,2	301,0	52,3	84,9
Vobkent	120,5	79,8	15,1	25,6
G'ijduvon	418,2	315,3	64,8	38,1
Kogon	364,2	175,5	91,8	96,9
Qorako'l	255,9	170,5	63,3	22,1
Qorovulbozor	298,9	108,5	62,0	128,4
Peshku	241,7	175,1	48,8	17,8
Romitan	339,8	258,4	57,3	24,1
Jondor	318,8	247,3	45,4	26,1
Shofirkon	248,2	149,6	59,3	39,3



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da




Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jondor tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **77,6 %** i yoki **247,3** mlrd. so'm), shuningdek, Romitan tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **76,0 %** i yoki **258,4** mlrd. so'm), G'ijduvon tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **75,4 %** i yoki **315,3** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.

Fuqarolik obyektlari qurilishi, jamiga nisbati, % da

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Kogon shahriga (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **33,4** % i yoki **110,8** mlrd. so'm), Kogon tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **25,2** % i yoki **91,8** mlrd. so'm), Qorako'l tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan **24,7** % yoki **63,3** mlrd. so'm) da qayd etildi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Qorovulbozor tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **43,0** % i yoki **128,4** mlrd. so'm), Kogon tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **26,6** % i yoki **96,9** mlrd. so'm), Kogon shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **24,9** % i yoki **82,1** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Buxoro sh.
1 102,0



Buxoro
438,2



G'ijduvon
418,2



Kogon
364,2



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Buxoro sh. (1 102,0 mlrd. so'm), Buxoro (438,2 mlrd. so'm), G'ijduvon (418,2 mlrd. so'm), Kogon (364,2 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Tel.: 65 223-81-99